

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING TUTGAN O'RNI

Javohir Muhammadjonov Turshunali o'g'li
Toshkent davlat transport universiteti

Bekzod Rashidov Ravshanjon o'g'li
Toshkent davlat transport universiteti

Jurabek Amangeldiyev Shamsuddin uli
Toshkent davlat transport universiteti

ANNOTATSIYA

Barchamizga ma'lumki sifatli ta'lim olish va ta'lim berish eng asosiy va ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanib kelgan. Bugungi kunga kelib, zamonaviy texnologiyalar rivojlangan bu davrimizda insonning xohish-istaklarini bajarish va amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Ilm-fan bir joyda to'xtab qolmaydi. U muntazam ravishda rivojlanib, o'z yutuqlarini modernizatsiya qiladi. Ta'lim berish jarayonida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirishda eng unumli vositalardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Axborot kommunikatsiya texnologiyalar, ta'lim sifati, innovatsiya, innovatsion texnologiyalar.

АННОТАЦИЯ

Как известно, качественное образование и преподавание всегда считалось одним из основных и приоритетных направлений. Сегодня, в эту эпоху передовых технологий, есть много возможностей для исполнения и реализации человеческих желаний. Наука не стоит на месте. Он регулярно развивает и модернизирует свои достижения. Использование современных инновационных технологий в процессе образования является одним из наиболее эффективных инструментов повышения качества образования.

Ключевые слова: Информационно-коммуникационные технологии, качество образования, инновации, инновационные технологии.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ABSTRACT

As we all know, quality education and teaching has been considered one of the main and priority directions. Today, in this era of advanced technology, there are many opportunities to fulfill and realize human desires. Science does not stand still. It regularly develops and modernizes its achievements. The use of modern innovative technologies in the process of education is one of the most effective tools for improving the quality of education.

Keywords: Information and communication technologies, quality of education, innovation, innovative technologies.

Ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'zi nima va u bizga qanday afzallik va qulayliklarni beradi? Ta'limda innovatsion texnologiyalar – bu pedagogik faoliyat natishasiga samarali erishishni ta'minlaydigan, o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi usullari va uslublari hisoblanadi.

Hozirgi asrimizda deyarli barchamiz “multimedia o'quv materiallari”, “inteefaol texnologiyalar va usullar”, “innovatsiyalar” va boshqa ko'plab shunga o'xshash tushunchalar bilan tanishmiz. Bir qarashda bu kabi tushunchalar murakkab va noma'lum bo'lib tuyuladi lekin boshqa tomondan ular o'xshash ma'nolarga ega. Fikr o'rnida aytish lozimki zamonaviy ta'lim berish jarayoni bosqichlarida oliy ta'lim muassasasi ma'lum talablarga javob berishi kerak. Bu talablar esa asosan, o'quv xonalaridagi kompyuterlar, proyektorlar, ya'ni axborot resurslari bilan jihozlanishi bilan bog'liqdir.

Ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishning birqancha ijobiy tomonlari mavjud. Ta'limdagi zamonaviy innovatsion jarayonlar o'zining quyidagi afzalliklariga ega:

- 1) talabalarning kognitiv faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladi va ayniqsa qaysi yo'nalishga bog'qliq bo'lishidan qat'iy nazar shu yo'nalishga xos bo'lgan dizayn bo'yicha motivatsiyasini uyg'otadi;
- 2) bunday zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalar uchun yanada qulay psixologik iqlimni yuzaga keltiradi. Bu esa pedagog va talabalar o'rtasidagi muloqotlarda yuzaga keladigan taranglikni bartaraf etadi;
- 3) talabalar uchun ijodiy maydon shakllanadi. Buning natijasida sifatli va qiziqarli fikrlar soni oshadi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

4) o'qituvchilarning mehnat unumdorligi va kasbiy madaniyatini oshishida muhim o'rin kasb etadi.

Innovatsion texnologiyalar – bu zamonaviy sharoitlarda talabaning shaxsiy rivojlanishidagi dinamik o'zgarishlar tufayli ijobiy natijalarga erishishga qaratilgan ta'lim berish usullari, uslublari, ta'lim vositalari tizimi hisoblanadi. Ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish talabalarning ta'lim texnologiyalariga moslashuvchanligini oshiradi va talabalarning bilimlarga qiziqishini, ijodiy faolligini oshirishda xizmat qiladi.

Innovatsion faoliyat pedagogik faoliyatning alohida yo'nalishi desak ham yanglishmagan bo'lamiz. Innovatsiya tushunchasi – yangi usullar, shakllar, vositalarni belgilash, texnologiya, pedagogik amaliyotda qo'llaniladigan, insonlarning shaxsiy hayotini va uning yangi qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qo'llaniladi.

Pedagogik sohadagi barcha innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichiga aniq mos kelishiga asoslangan. Hozirgi vaqtda innovatsiyalar talabalarning mustaqilligini bosqichma-bosqich rivojlantirishga, o'z-o'zini o'rganish, o'z ustida ishlab, o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishga, o'quv dasturlarini mexanik ravishda emas, balki ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilishi kerak.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish mobaynida talabalarda individual rivojlanish holati yaxshilanadi va bunda, zamonaviy texnologik vositalardan foydalanish malakasi oshib boradi. Eng so'ngi, zamon talabiga mos holatda innovatsion vositalar orqali berilgan ma'lumotlar o'zining rangdorligi va jozibador ko'rinishi orqali inson yodlashini tezlashtiradi va xotiradi nisbatan yaxshi saqlanib qoladi.

O'qituvchi dars o'tishi mobaynida qanchalik innovatsiyalar ko'p bo'lsa, darsning mazmuni oshadi va talagada o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir qiladi.

Ta'limda sifat – qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun amalga oshirilayotgan ishlarning nazorati va baholash bo'yicha olingan natijalar monitoringi orqali namoyon bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim mazmuni va sifat ko'rsatkichlarini oshirishga qaratilgan rejalari aniq maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lishligi lozim.

Ta'lim sifatini belgilovchi omillarning asosiylaridan biri esa o'qituvchi-pedagoglardir. O'qituvchi-pedagoglarning ta'lim jarayonini sifatli tashkil etishdagi ijodkorligi, izlanuvchanligi, pedagogik mahoratlarini baholab borish va



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

mehnatlariga yarasha moddiy va ma'naviy rag'batlantirib borish ta'lim mazmuni va sifat ko'rsatkichlarini oshirishning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayidahmedov N., New pedagogical technologies, Tashkent, Finance, 2003.
2. Ishmuhammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. -T.: 2002.
3. Isoqov I., Kulmamatov S.I. Modern forms and methods of teaching computer science. Toolkit. Guliston, GulDU, 2014.



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

